

## PROFESSIONAL FUTBOLCHILAR SHARTNOMASIDA IJARA MUNOSABATLARINING AHAMIYATI

Zuxurov Azimjon Shavkat o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti "Sport huquqi" magistratura bosqichi talabasi

Email: [zuxurovazim1999@gmail.com](mailto:zuxurovazim1999@gmail.com)

Tel: +998(94)630-31-11

Futbolchilarni transfer qilish shakllaridan biri ularni faoliyati davomida bir klubdan boshqa klubga belgilangan muddatga "ijaraga" berish hisoblanadi.

"Ijara" transfer shartnomasining bir shakli ham hisoblanadi. Sababi bunda futbolchining mehnat shartnomasining alohida bobida transfer qoidalari ichida futbolchi muayyan muddatga har ikkala jamoa kelishga taqdirda o'z professional faoliyatini boshqa klubda amalga oshiradi.

"Ijara" xalqaro va milliy qonunchilik darajasida ham tartibga solinadi. Umuman professional futbol sohasida "ijara"ning huquqiy asoslari bahsli hisoblanadi. Sababi, bunda futbolchi predmet sifatida emas balki shaxs sifatida ijaraning obyektiga aylanib qolmoqda. Umuman, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga ham e'tibor berar ekanmiz ijara shartnomasi obyektini inson bo'lishini uchratmaymiz. Biroq futbolchilar mehnat shartnomasining transfer qoidalarining o'ziga xos jihati sifatida uni xizmatini ijaraga berilishini ko'rsatishimiz mumkin.

O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi Ijroiya qo'mitasi Byurosining 2020-yil 31-dekabrda №1 sonli qarori bilan "Futbolchilar maqomi va transferi bo'yicha reglamenti" qabul qilingan bo'lib, ushbu reglament asosida mamlakatimizdagi futbol klublari transfer siyosatini amalga oshiriladi.

"Ijara" shartnomasining foydali jihati klublarga o'zlarining yangi rejalarini uchun kerakli bo'lgan natijaga erishishga yordam beradi. Masalan, bir klub o'z futbolchisini ijaraga bersa, ijaraga berilayotgan futbolchiga maosh to'lashdan ozod bo'lishi va unga to'lanadigan maoshga boshqa iqtidorli futbolchini jalb etish imkoniga ega bo'lishi mumkin. Yoki futbolchining maoshi kattaligi tufayli ijarachi klub bilan uning maoshini bo'lib to'lash imkoniga ega bo'ladi. O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi Ijroiya qo'mitasi Byurosining 2020-yil 31-dekabrda №1 sonli qaroriga asosan professional futbolchilarning mehnat shartnomalari hamda undagi transfer qoidalari tartibga solinadi. "Futbolchilar maqomi va transferi bo'yicha reglamenti"ning 10 moddasiga binoan professional futbolchi ikki klub o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan o'z roziligi asosida ijara asosida o'z professional faoliyatini davom ettirishi mumkin. Bu kabi ijaraning ham belgilangan tartiblari



mavjud bo‘lib futbolchining roziligi hamda uning klubiga birdamlik hamda mashg‘ulot kompensatsiyalari berilishi kerak. Ijara kelishilgan taqdirda uning minimal muddati ham kelishilishi shart. Futbolchi kamida bir transfer oynasi davrida ijarada bo‘lishi shart hisoblanadi. Futbolchi ijara asosida to‘p surayotgan klub futbolchi tegishli bo‘lgan klub bilan kelishmasdan turib uni boshqa klubga ijaraga berishga haqli emas hisoblanadi. Mehnat qonunchiligiga ko‘ra klub – “ijaraga beruvchi” futbolchining mehnat shartnomasini muayyan to‘xtatib turish, ijaraga oluvchi klub esa klubga qo‘shilgan futbolchi bilan muayyan muddatli shartnoma tuzishga majbur ekanligi ko‘rsatilgan. Bu bir vaqtda futbolchini o‘zini avvalgi klubidan ko‘ra kelib qo‘shilgan yangi klubga tegishli ekanligini ko‘rsatadi. Futbolchiga to‘lanadigan summadan tashqari sobiq klubga tegishli tovon puli ham to‘lanishi mumkin. Bu holatda barcha masalalar klublarning o‘zaro o‘tkazadigan muzokaralariga bog‘liq hisoblanadi. Klublar yakdil qarorga kela olsa futbolchining roziligi olingan holda ijara harakatlari boshlanadi. Biroq shunga qaramssdan ijarada huquqiy tartibga solishga doir ziddiyat hamda nizolarni bartaraf etishga doir huquqiy yechimlar hali hamon to‘liq tahlil etilmagan. Sababi bu bir vaqtning o‘zida ham mehnat qonunchiligi hamda fuqarolik qonunchilik hujjatlarini qo‘llash hamda ularning bir birga zid kelgan jihatlarida ustunlikni qaysi sohaga berish bilan bog‘liqdir. Umumiy transfer qoidalariga xos xususiyat ijara shartnomasiga ham qo‘llaniladi. Ya‘ni tomonlarning shartnoma shartlarini erkin tanlashi hamda uni bajarishi. Futbolchilar uchun aslida ijaraga o‘tish noqulayliklar keltirib chiqaruvchi shart sifatida qaraladi. Sababi ularning kelajaklari mavhum hamda karyeralarining qanday davom etishi so‘roq ostida qoladi. Doatda ijarada to‘p surayotgan futbolchilar uchun ularning professionaligini ushlab turish qiyin kechadi. Sababi ularni jamoaga moslashishi hamda yangi ratsionlarni qabul qilishi ularga qo‘shimcha bosim yuklaydi. Masalan, ular o‘zlarining sobiq klublariga qarshi maydonga tushmasliklari haqida ham talabalar bo‘lishi mumkin. Bu esa ularning o‘zlarini ko‘rsatish imkonini cheklab qo‘yadi. Bu qoida futbolchining o‘z professionaligini ko‘rsatishiga ziddek tuyulsada ularning o‘z klubiga qarshi o‘ynamasligi ularni ortiqcha bosimdan qutqaradi. Bu kabi misollarni ko‘p uchratishimiz mumkin. Ko‘rib turganimizdek, ijarada ko‘proq futbolchining emas balki klubning manfaatlari himoya qilinadi. Ushbu vaziyat bilan bog‘liq holda yana bir savol tug‘iladi: professional futbolchining “ijarachi” klubiga qarshi o‘yinlarda o‘ynashini taqiqlash qanchalik huquqiy asosga ega? Bunday taqiqning mavjudligi shaxsning o‘z mehnat qobilyatidan foydalanish imkoniyatini buzmaydimi? Sababi barcha futbolchilar ham o‘zlarining sobiq jamoalariga qarshi



o‘yinlarni o‘tkazib yuborishdan manfaatdor emas. Bunday vaziyatlarda futbolchilarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ham qaytadan ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, vaqtinchalik ish beruvchining manfaatlarini qondirish uchun sportchining “ijaraga beruvchi” klubiga qarshi o‘yinlarda ishtirok etishi uchun kompensatsiya to‘lovlarini to‘lash majburiyati sportchining o‘ziga yoki birdamlik uchun yuklanishi mumkin. Futbolchilarning "ijara" shartlari bo‘yicha bir klubdan boshqasiga o‘tishlari (transferlari) bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish ko‘plab savollarni qoldiradi, chunki vujudga kelayotgan huquqiy nizolar va ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish uchun aniqlik zarur emas. Boshqa futbol klubiga “ijara” asosida o‘tgan futbolchilarga ular “ijara” asosida o‘tgan klubga qarshi o‘tkaziladigan futbol o‘yinlarida ishtirok etishi taqiqlangan alohida holatlar sportchilarning huquqlari buzilganligining da’vo qilingan turlaridan biridir. Bu masalani shunday qonuniy tartibga solish kerakki, sportchiga boshqa futbol klubiga o‘tishda (o‘tkazishda) katta huquqlar berilishiga asos bo‘ladi.

#### Foydalanilgan manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
2. Sport kontrakti huquqi: O‘quv qo‘llanma. Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU, 2020. – 27 b.
3. Рогачев Д.И. Спортивное право России. Учебник для магистров - Москва, 2016. с. 123- 157
4. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.10.2022-y., 02/22/798/0972-son; 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son
5. Bucher E (2004) Law of contracts. In: Dessemontet F, Ansay T (eds) Introduction to Swiss Law, 3rd. edition, Chapter 8 (vgl.auch Nr.61).
6. O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi Ijroiya qo‘mitasi Byurosining 2020-yil 31-dekabrda №1 sonli qarori bilan tasdiqlangan “Futbolchilar maqomi va transferi bo‘yicha reglamenti”.

